

Berdiyeva Gulobod Shonazarovna,
Qarshi Axborot texnologiyalari va menejment
universiteti "Pedagogika" kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING IJODIY SALOHIYATINI AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

UDK: 371.13:37.018.4

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_9_2](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_9_2)

BERDIYEVA G.SH. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING IJODIY SALOHIYATINI AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi ustuvor vazifalari to'g'risida bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini samarali shakllantirish imkoniyatlari, shakllari, ijtimoiy madaniy faoliyatda har bir masalaga kreativ yechim topa olishlaridagi roli yuqori o'rin egallaydi.

Maqolada bugungi kun oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishning asosiy shart-sharoitlari, ijodiy salohiyatni rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari va ijodkorlikni rivojlantirishga imkon beruvchi yetakchi usullar tahlili keltirib o'tilgan

Tayanch so'z va tushunchalar: pedagogik ijodkorlik, ijodiy salohiyat, malaka, fanlararo integratsiya, ijodiy faoliyat, ijodiy muhit, ta'lim, o'qitish jarayoni.

БЕРДИЕВА Г.Ш. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Данная статья посвящена приоритетным задачам развития творческого потенциала студентов высших учебных заведений в социокультурной деятельности. В ней акцентируется внимание на возможностях, формах и эффективности формирования профессиональных навыков будущих учителей, а также на их способности находить креативные решения в каждой ситуации социокультурной деятельности.

В статье также представлен анализ основных условий развития творческого потенциала студентов в социокультурной деятельности в современных высших учебных заведениях, современных технологий развития креативности и ведущих методов, способствующих творческому развитию.

Ключевые слова и понятия: педагогическое творчество, творческий потенциал, компетенция, компетентность, междисциплинарная интеграция, творческая деятельность, креативная среда, образование, учебный процесс.

BERDIYEVA G.SH. PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING FUTURE TEACHERS' CREATIVE POTENTIAL BASED ON AN AXIOLOGICAL APPROACH

This article discusses the priority tasks of developing the creative potential of students in higher education institutions within socio-cultural activities. It emphasizes the opportunities, forms, and effectiveness of shaping future teachers' professional skills, as well as their ability to find creative solutions to every issue in socio-cultural contexts.

The article also presents an analysis of the main conditions for developing students' creative potential in socio-cultural activities in modern higher education institutions, modern technologies for enhancing creativity, and leading methods that foster creative development.

Key words and concepts: pedagogical creativity, creative potential, competency, interdisciplinary integration, creative activity, creative environment, education, teaching process.

Kirish.

Dunyoda ta'lim jarayonida aksiologik yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. UNESCO tashabbusi doirasida ishlab chiqilgan "Global Citizenship Education" dasturi yoshlarni insonparvarlik, adolat va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan yondashishga o'rgatishni maqsad qilgan. Bu dastur turli davlatlarda amalga oshirilayotgan ta'lim strategiyalarini muvofiqlashtirishga va yoshlarni jamiyatdagi ijtimoiy mas'uliyatni anglagan shaxs sifatida rivojlantirishga qaratilgan. Shu sababli aksiologik yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash, pedagogik modellashtirish, pedagogik texnologiyasini va mexanizmini takomillashtirish, talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlanganlik darajalarini baholash mexanizmini ishlab chiqish zarurati mavjid.

Mamlakatimizda bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida oliy ta'limni rivojlantirish bo'yicha zamonaviy tendensiyalar talabalar ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi yondashuvlarni izlashni taqozo etmoqda.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu jarayonning markazida aynan talabalar turadi. Oliy ta'lim muassasalari talabalar ta'lim muassasaga madaniy qadriyatlar iste'molchisi va ijodiy shakllarning yaratuvchisi sifatida keladilar. Ular turli ijtimoiy hayot shakllarining ijodkorlari bo'lib, kelajakdagi ijtimoiy-madaniy faoliyat mutaxassislari sifatida ichki dunyosining shakllanishi, shaxsiy sifatlarining rivojlanishi, ko'p qirrali va ko'p yo'nalishli kompetensiyalarining takomil-

lashuvi orqali muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadilar.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini ijodiy salohiyatini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy tahlili va modellashtirish asosida pedagogika fanida kam rivojlangan maqsadli jarayon ekanligini aniqladik. Oliy ta'lim tizimini isloh qilish va oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash mamlakat siyosati va iqtisodiyotidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Ushbu bo'limda oliy ta'lim muassasalari talabalarini ijodiy salohiyatini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlar majmuasini aniqlashga harakat qilamiz.

Falsafada "shart" tushunchasi munosabatlarni ifodalovchi kategoriya sifatida - obyektga, uning atrofidagi hodisalarga ta'rif beriladi. Tadqiqotimizda biz pedagogik tizimni keltiramiz, shuning uchun "pedagogik shart-sharoitlar" tushunchasidan foydalanamiz. Pedagogik shart-sharoitlar deganda ta'lim va tarbiya jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarini ijodiy salohiyatini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishni ta'minlovchi chora-tadbirlar majmui tushuniladi.

Tizim deganda ma'lum bir butunlikni, birligni tashkil yetuvchi, bir-biri bilan munosabat va bog'lanishda bo'lgan yelementlar majmui tushuniladi. Tizimlarda elementlar, jarayonlar va ularning o'zaro ta'siri farqlanadi, shuning uchun tizimlarning tuzilishi va vazifalari haqida ta'kidlashimiz mumkin.

Demak, talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirish ma'lum bilimlar tizimi va ularning rivojlanishidagi maqsadlarni tashkil etuvchi umummadaniyati sifatida mavzu, jarayon, hodisa sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi:

Oliy ta'lim muassasasi talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish.

Tadqiqotning usuli va obyekti:

Oliy talim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy salohiyatining mavjud holatini o'rganish, tahlil qilish, taqqoslash va ilmiy qarashlar va konsepsiyalarning qiyosiy tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot obyekti: aksiologik yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayoni, shart-sharoitlarini o'rganish va tahlil etish.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.

Mamlakatimizda aksiologik yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorida ta'kidlanganidek, "yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash" ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning asosi hisoblanadi¹. Mazkur maqsadlarni amalga oshirishda ta'lim jarayonining milliy qadriyatlarga asoslanganligi bilan bir qatorda, talabalarining ijodiy salohiyatini innovatsion va raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirishga ehtiyoj ortib bormoqda. O'zbekistonda aksiologik yondashuv asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturlari va yangi usullar yoshlarni jamiyatda mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bunda nafaqat milliy an'analar, balki jahon tajribasini o'rganish va joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijodiy salohiyatni rivojlantirish modelining metodologik asoslari quyidagi ilmiy konsepsiyalar va pedagogik nazariyalarga tayanadi:

- Ijod mohiyatiga oid psixologik-pedagogik konsepsiyalar (*V.I. Andreyev, N.A. Berdyayev va boshqalar*);

- Ijodiy salohiyatga bag'ishlangan tadqiqotlar (*K.A. Abulxanova-Slavskaya, B.G. Ananyev va boshqalar*);

- Estetik tarbiya konsepsiyasi (*A.I. Burov, L.A. Volovich va boshqalar*);

- Ijtimoiy-madaniy faoliyatga bag'ishlangan tadqiqotlar (*B.S. Alishev, M.A. Ararskiy va boshqalar*);

- Pedagogik modelni loyihalash metodologik asoslariga bag'ishlangan tadqiqotlar (*V.P. Bepalko, N.M. Borytko, B.S. Gershunskiy, V.V. Kraevskiy, E.A. Kryukova, V.M. Monaxov, V.A. Slastenin, V.V. Serikov, N.V. Savinix va boshqalar*).

Ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorgarlik shaxsning o'z-o'zini anglashining zaruriy sharti deb hisoblanadi. Oliy ta'lim talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorgarligiga qat'iy talablar qo'yadi. Shuning uchun ta'lim oluvchining individual-shaxsiy komponentlari "o'qituvchi-talaba" tizimida ta'lim vositasi sifatida yaratilgan tizimning yetakchi elementi sifatida qaraladi.

Ta'limda individual-shaxsiy yondashuv o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- psixologik mazmunning, shaxs tavsiflarining muhimligi;

- adekvat tavsifga ega bo'lgan o'qitish metodlarini ishlab chiqish, shaxsning xususiyatlari, talabalarining ehtiyojlari, motivlari, qiziqishlarini hisobga olish.

Bunday holda, shaxs o'z shaxsiy hayotining subyekti sifatida ishlaydi.

Talabaning shaxsiyati nafaqat jamiyat rivojlanishining mahsuli, balki ayni paytda jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu boisdan, ijodiy salohiyatni rivojlantirish pedagogik jarayonning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, har bir talaba tug'ma shaxsiy xususiyatlar – qobiliyat, layoqat, temperament, iste'dod, talant kabi individual xususiyatlarga ega bo'lib tug'iladi. Demak, u ma'lum darajada ijodiy salohiyatning boshlang'ich rivojlanish darajasi bilan shakllanadi, ya'ni muayyan muammolarni hal qilish, yangi g'oyalarni yaratish, ularni kombinatsiya qilish va o'zaro bog'lash qobiliyatiga ega bo'ladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3907-son Qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018-y., 07/18/3907/1706-son; 14.12.2019-y., 06/19/5894/4161-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son. (Murojaat sanasi 2025 yil 10 sentabr)

Biroq, kasbiy kompetentlikning shakllanishi, ijodiy o'zini rivojlantirish va mustaqil professional faoliyatga tayyorgarlik uchun talabani tug'ma ijodiy salohiyati yetarli emas. Shu sababli, oliy ta'lim jarayonida talabalarning kreativ va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu jarayon ularning kelajakdagi ijtimoiy-madaniy faoliyatga ijodiy tayyorgarligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun ta'lim jarayonida talabani ijodiy shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlash uchun muhim vazifalar quyidagilardan iborat:

1) Talabani ijodiy bo'lishiga nima sabab bo'lishini aniqlash;

2) Talabalarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish.

Bu sharoitlar OTMda gumanitar ta'lim muhitini yaratish orqali talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga zamin yaratadi. V.A. Petrovskiyning fikriga ko'ra, hayotning subyektivligi uning eng muhim komponentlaridan biridir. Olim shaxsning to'rtta asosiy xususiyatini aniqlaydi, ular orasida o'z borlig'ining subyektivligi barcha holatlarda ko'rinadi. Shaxs hayotining subyektini dunyo bilan hayotiy aloqalarini qurish, o'z hayot dasturlarini amalga oshirish, ijtimoiy va tabiiy muhit bilan o'zaro aloqada bo'lishdir. Ikkinchi o'rinda A.V. Petrovskiy shaxsning faoliyatini qo'yadi. Shu bilan birga, insonning atrofdagilar hayotida ma'lum darajada ideal namoyon bo'lmasdan turib, muloqot subyektini bo'lish mumkin emasligi ta'kidlanadi. Va, nihoyat, shaxs o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash predmeti hisoblanadi [3].

A.N. Leontievning so'zlariga ko'ra, "individual-shaxsiy yondashuv shaxsning barqaror muvozanatini belgilaydi. Shaxsning real muvozanati uning dunyoga bo'lgan ijtimoiy munosabatlari va amalga oshirilgan munosabatlar yig'indisidir va ular o'z faoliyati bilan, aniqrog'i, uning turli tuman faoliyatlari bilan amalga oshadi" [4].

Faoliyatli yondashuv shaxs faoliyatini shakllanishining asosiy manbai va uning rivojlanish omili deb hisoblaydi. Ushbu yondashuvning asosiy qoidalariga asoslanib, bilim va amaliy ko'nikmalarni o'z vaqtida bo'shliqqa ega bo'lmagan holda organik integratsiya asosida o'zlashtirish jarayonini ko'rib chiqamiz, talabalarning kasbiy kompetensiyalari faqat asosiy o'quv fanlarining birgalikdagi faoliyatini hamkorlik sharoitida tashkil etish asosida amalga oshirilishi mumkin.

Shunday qilib:

1. Maqsadli yondashuv (tizim) talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish jarayonining tarkibiy va funksional modelini ilmiy va ilmiy bo'lmagan ishlar integratsiyasi sharoitida ishlab chiqish imkonini berdi.

2. Faoliyatli yondashuvga tayanish bu jarayonda ta'limning asosiy subyektlari faol ishtirokida ijodiy salohiyatni rivojlantirishni ijtimoiy-madaniy faoliyat bilan tashkil etish imkonini beradi.

O'rganishga faollikka asoslangan yondashuv talabalarning maqsadli o'quv-biluv faoliyatini o'zlashtirish orqali ijodiy tavsifini shakllantirishga, talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beruvchi samarali o'qitish usullaridan foydalanishga yordam beradi.

Talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlashda ijodiy salohiyatini rivojlantirish bo'yicha pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish va o'tkazish uchun biz tendensiyalarni to'liq amalga oshirilishi kerakligidan kelib chiqamiz. Quyidagi tamoyillar:

- "o'zini anglash" perspektivasi anglash orqali ta'lim tizimining moslashuvchanligi (mazmun, bilim va ko'nikmalarni egallash shaxs ehtiyojlarini qondiradi);

- ta'lim tizimining dinamikligi;
- individual ta'lim (o'qituvchi va talabani hamkorligi).

Talabalar jamiyatning raqobatbardoshligi va farovonligi tushunmovchiliklarni bartaraf etishi va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish zarurligiga bog'liq. Shu bois talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari dolzarb pedagogik muammoga aylanmoqda. Talabalarning ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishning birinchi sharti-talabalarning bilim va ko'nikmalarning minimum darajasini egallashi uchun elektron-didaktik ta'minotini rivojlantirish zarur.

Talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatga ijodiy salohiyatini rivojlantirishning birinchi bosqichida eng muhimi bilimlarni aniqlashtirish, ya'ni dasturlarning tuzilishi va kurs mazmunini aniqlashdir. Talaba fanni o'rganishga kam tayyorgarlik ko'rgan. U odatdagi fanga (bizda ijtimoiy-gumanitar fanlar) doir tushunchalar haqida noto'g'ri fikrlarga ega bo'lib, hayot tarzining muayyan rad etilgan mafkurasi, boshqaruv tiz-

imi sifatida fanga salbiy munosabat ta'siri ostida tarbiyalangan bo'lishi mumkin.

Ta'lim muassasasining kadrlar salohiyati bu tanlov, targ'ibot hisoblanadi. O'quv faoliyati uchun kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, ta'lim muassasasi o'qituvchilaridan tashqari tashkilotlari xodimlari, masalan, bandlik xizmatlari, yoshlar agentligi, tadqiqotchilar va boshqalar jarayoniga jalb qilinishi mumkin. Oliy ta'lim muassasasida kadrlar siyosatining maqsadi o'qituvchi va xodimlarning barqaror jamoasini shakllantirish, ularning kasbiy malakasini oshirish hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilarining malakasini oshirish seminar, modulli kurslar, konferensiyalar, ko'rgazmalar, hamkasblar bilan tajriba almashish, ta'lim muassasalari va korxonalaridagi stajirovkalar, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlik orqali amalga oshiriladi.

Loyihani samarali amalga oshirish uchun oliy ta'lim muassasasida malakali pedagog kadrlar yetarli bo'lsa-da, umuman dasturiy ta'minotni yangilash, yangi ta'lim texnologiyalari, ta'limga zamonaviy yondashuvlar va boshqalar zarurdir.

Birinchi shartga ko'ra, moddiy-texnik shart-sharoitlar bu ta'lim jarayonini ta'minlovchi zarur moddiy-texnik bazasini yaratishdir.

Ikkinchi shart-ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlash orqali ijtimoiy-madaniy faoliyatda talabalarni ijodiy salohiyatini rivojlantirishga integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirish.

Integratsiyalashgan yondashuv o'qitishning eng samarali yo'llarini topishga imkon beradi. Bu bilan ta'lim jarayonining axborot xavfsizligi, turli fanlarning o'zaro aloqadorlikda ifodalangan munosabatlari nazarda tutiladi.

Oliy ta'lim muassasasida integratsiyalashgan jarayonlarning ahamiyatini tushunish subyektiv o'zaro ta'sirlarning xilma-xilligini, ta'limda turli darajadagi integratsion jarayonlarni chuqur o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Barcha fanlar (bizda ijtimoiy-gumanitar fanlar) bo'yicha mavjud davlat dasturlari, mavzuni o'rganish uchun ajratilgan soatlar soni, tavsiya etilgan darsliklar ushbu ta'lim muassasasida ishlab chiqilgan o'quv stereotiplarining takomillashuvisha olib keladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni bilish nafaqat maxsus adabiyotlarni (darsliklar, o'quv qo'llanmalar) o'qishni, balki tahliliy ishlarni,

ijodiy faoliyatni va tadqiqot jarayonini tashkil etishni ham talab qiladi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv yangilik, integratsiya va o'zaro muloqot qilishni talab qiladi.

Uchinchi shart-qo'shma ta'limiy faoliyatga talabalarni jalb etish orqali ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatni rivojlantirish tajribasini shakllantirish.

Turli ta'lim shakllarida, masalan, ma'ruza, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta'lim, to'garak va boshqalarda o'quv materialini o'zlashtirish samaradorligini oshiruvchi faol o'qitish metodlari mavjud. Bu metodlar faol va interfaol ta'lim metodlari deyiladi [8].

Talabalar tomonidan faol va interfaol ta'lim metodlari orqali olingan faoliyat uzoq muddatli va barqarordir [7].

Inson faoliyatda shakllanadi va rivojlanadi. Faoliyatning birlamchi shakli uning jamoaviy ishlashidir. Talabalarning bilimlarni o'zlashtirishi ularning biror muammoni jamoaviy muhokama qilishda ishtirok etishi, birgalikda yechimlarni topishi va ishlab chiqishi, o'z nuqtai nazarini himoya qilishi va odamlarni boshqarishga o'rganishlarida kuzatiladi.

Guruhlarda ishlashga qaratilgan uchinchi pedagogik shart jamoaviy ishbilarmonlik, hamkorlik qilishga tayyorlik, ishbilarmonlik munosabatlarida odoblilik, ijodkorlik va yangilikka ehtiyoj, halollik va maqsadlilik, ehtiyojli va qadriyatli yo'naltirilgan madaniyat kabi fazilatlar hisobga olinadi.

Shunday qilib, talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, biz taklif etgan texnologik modelning komponentlarini ham, talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning barcha jarayonini ham ta'minlaydi. Biz psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, ish tajribasi, tajriba-sinovining aniqlashtiruvchi bosqichi natijalari va ishlab chiqilgan texnologik modelning xususiyatlari asosida texnologik modelning ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarni aniqladik. Talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirish ta'lim jarayonining o'zaro ta'sir etuvchi omillari majmuasi bo'lib, undan bu hodisaning shartlilikini buzmagani holda hech qanday komponent chiqarib tashlanishi mumkin emas.

Birinchi pedagogik shart-yuqorida bayon etganimizdek talabalarning bilim va

ko'nikmalarning minimum darajasini egallashi uchun elektron-didaktik ta'minotini rivojlantirishdir.

Ta'lim jarayonida maxsus kursni joriy etish zarur, masalan: "Ijtimoiy-madaniy faoliyat". Bundan tashqari, o'quv jarayonida fakultativ mavzular va tanlov fanlarni ko'zda tutiladi. Albatta, bu mashg'ulotning hajmi va soatlar miqdorini oshirish lozim, ammo mamlakat hayotining zamonaviy amaliyotida konkurslarda forumlarda, olimpiadalarda va boshqalarda.

Shunday qilib, "Ijtimoiy-madaniy faoliyat" maxsus kursi talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantiradi, maxsus fanlarni o'zlashtirishi, talabalar, kurs loyihalari, diplom loyihalari va ijtimoiy-madaniy faoliyatlari uchun zarurdir.

Shaxs tuzilishi obyektiv omillar ta'sirida shakllanib, miyaning yuqori nerv faoliyati bilan bevosita bog'liq. Uning shakllanishiga hayot davomida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar va faoliyat jarayonlari ta'sir ko'rsatadi. B.G.Ananevning fikricha, individuallik insonning barcha xususiyatlarini – biogenetik, ijtimoiy-madaniy va faoliyat subyekti sifatida namoyon bo'lishini birlashtiruvchi integral tuzilma hisoblanadi. Unga ko'ra, insonni ochiq tizim sifatida ko'rib chiqish kerak, lekin shu bilan birga, u o'z xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi sababli nisbatan yopiq tizim sifatida ham namoyon bo'ladi.

Ijodiy salohiyatning rivojlanish jarayoni psixik jarayonlarning dinamikasi bilan bog'liq. Inson faoliyatining ijodiy qirralari uning ehtiyojlarini qondirish va jamiyatda o'z o'rnini topish istagi bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, ong osti jarayonlari ham ijodiy tafakkurning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Inson tafakkurining ijodiy faolligi retikulyar shakllanish va limbik tizim faoliyati orqali rag'batlantiriladi.

Ijtimoiy fanlarni o'qitish ijodiy yo'nalishga ega bo'lib, boshqa fanlar bilan yaqin aloqada amalga oshiriladi. Fanlararo integratsiyadan foydalanish materialni o'rganishning uzluksizligini ta'minlaydi, takrorlashni bartaraf etadi va o'qituvchilarga vaqtdan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Nazariy materialni yaxshiroq o'zlashtirish va talabalar tomonidan kerakli ko'nikmalarni egalash uchun seminar va amaliy mashg'ulotlarda muammoli topshiriqlar, mavzular bo'yicha test topshiriqlari va boshqalardan foydalanib

o'tkaziladi hamda talabalarining mustaqil ishlari ta'minlaydi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish orqali talabalarni ijodiy salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

1. Ijtimoiy-gumanitar fanlarga doir bilimlarning tuzilishini chuqur tahlil qilish.
2. Uning evolyutsiyasining asosiy tendensiyalarini aniqlash.
3. Talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi uslubiy-didaktik ta'minotni rivojlantirish.

Ikkinchi pedagogik shart, faoliyatli yondashuvini, ya'ni o'qituvchi-talabaning ijodiy faoliyatini farqlashdir. Bu pedagogik yondashuvga erishish yo'li, bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, mashg'ulotlarda faoliyatning amaliy ko'nikmalariga, shuningdek, ijodiy salohiyatini rivojlantirishda ro'y beradigan jarayonlarni modellashtirishga, o'quv tajribasini umumlashtirishga ko'proq e'tibor berishdir. Bu bosqichda fanlararo integratsiyani, an'anaviy va innovatsion o'qitish metodlarini birlashtirish muhim ahamiyatga molik. Oliy ta'limni innovatsion rivojlanish jarayoni talabalarining yangilikka tayyorligini nazarda tutadi. Bu quyidagilarda ifodalanadi:

- talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishda;
- har bir talabaning ijtimoiy-madaniy faoliyat tizimini tajribaviy g'oyalari bilan boyitishda;
- ta'limning pedagogik texnologiyasida fanning yutuqlarini bilishda.

Pedagogikada innovatsiya tushunchasi aniq ta'rifga ega emas innovatsiyani ishlab chiqarish subyekti tomonidan ishlab chiqarishning bir yoki bir nechta kichik tizimlarida (yoki boshqa har qanday obyektida) ishlab chiqarish (texnik), iqtisodiy, ijtimoiy, ularni yaxshilashga qaratilgan va yangi (ushbu tashkilot uchun yangi) mahsulotni, texnologiyani, ishlab chiqarishni boshqarishning tashkiliy shaklini tashkil etishda foydalanishdan iborat[6].

Innovatsiyalar ta'lim tizimining bir holatdan ikkinchi holatga o'tishiga sabab bo'ladigan ma'lum barqaror elementlarni (yangiliklarni) kirituvchi yo'naltirilgan o'zgarish sifatida ta'riflanadi.

O'quv materialini muammoli talqin qilishning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi bilimlarni tayyor holda yetkazmaydi. Talabalarga muammoli vazifalar qo'yadi, ularni yechish yo'llari va

vositalarini izlashga undaydi. Bu yerda yangi bilimlar axborot uchun emas, balki ma'lum va noma'lumlarni ajratib olish va muammoga duch kelgan talaba bilmagan narsasini aniq bilganda yechimlarni aniqlash imkonini beradigan muammoni yechish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar.

1. Talabalarni raqamli texnologiyalar vositasida ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishning innovatsion metodik modeli va pedagogik shart-sharoitlari samardorligi va ishlab chiqilgan sifat mezonlari asosida pedagogik tajriba-sinovini amalga oshirish lozim.

2. Umumiy ma'noda pedagogik shart-sharoitlarni uchta katta guruhga bo'lish mumkin: tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik, predmetli-didaktik.

3. Tashkiliy-pedagogik. Bunda ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha fan dasturlarini tahlil qilish, fan dasturlari mazmuniga qo'shimchalar kiritish, davlat ta'lim standartlari talablarida

innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish bo'yicha keltirilgan izohlarni mazmunan to'ldirish;

4. Pedagogik-psixologik. Bu holda oliy ta'limning rivojlantiruvchi ta'lim muhitini tashkil etish yuzasidan talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlanishini ta'minlay olish, refleksiv harakatlarni amalga oshirishga tayyorlash hamda imkoniyatlar bera olish;

5. Predmetli-didaktik. Bu holda oliy ta'limda rivojlantiruvchi ta'lim muhitini tashkil etishga yo'naltirilgan uslubiy-didaktik, pedagogik dasturiy hamda topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, onlayn va offlayn ijtimoiy-gumanitar bilim olishga sharoitlar to'plamini ishlab chiqish.

6. Shunday qilib, ta'minlangan pedagogik shart-sharoitlar talabalarni ijtimoiy-madaniy faoliyatda ijodiy salohiyatini rivojlantirishni ta'minlashi, ishlab chiqilgan texnologik modelni, pedagogik mexanizmni hamda takomillashtirilgan pedagogik texnologiyani samarali ishlashini ta'minlashi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3907-son Qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018-y., 07/18/3907/1706-son; 14.12.2019-y., 06/19/5894/4161-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son. (Murojaat sanasi 2025 yil 10 sentabr)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'grisida"gi PF-5847-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son; 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son. (Murojaat sanasi 2025 yil 10 sentabr)

3. Петровский А.В. Роль фантазии в развитии личности. - М.: Знание, 1961. - 47 с.

4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. — М.: Политиздат, 1982. — 126 с.

5. Борисов А.И. Психолого-педагогические аспекты подготовки педагога-хореографа: Дис. .канд. психол. наук. — Самара, 2001. — 233 с.

6. Ангеловски. Учителя и инновации. — М.: Просвещение, 1991. — 156 с.

7. Ахияров К.Ш. О методологии и методах педагогических исследований / Проблемы обучения и воспитания молодежи в условиях непрерывного образования. — Уфа: Изд-во БГПИ, 1991. — С. 3 - 8.

8. Андросова З.А. Организация деятельности педагогического коллектива по разработке программно-методического обеспечения учебно- воспитательного процесса // Дополнительное образование. - 2003. - С. 17-23.